

UDC: 81'255.2/4=512.133:821.111

**SHEKSPIR DRAMALARIDAGI KALAMBURNING O'RNI ("QIROL LIR"
TRAGEDIYASI MISOLIDA)**

Mizrabova Jeren Ismailovna

Buxoro davlat universiteti dotsent (PhD)

Shekspir o'z dramalarida qo'llagan aynan so'z o'yinlari va kalamburlari asar qahramonlariga o'tkir aql, farosat va hayot baxsh eta olgan. Shekspirning kalamburlar ijodkori sifatidagi o'tkirligi nafaqat so'z o'yinlaridagi g'ayritabiiy so'zlar tanlash mahorati, balki parodoksal obrazlar yaratishdagi tasavvurlarining o'tkirligi bilan ham belgilanadi.

Shekspirning "Qirol Lir" nomli falsafiy tragediyasining birinchi sahnasi davomida qirol bundan buyon saroyida kechayotgan jarayonlarga o'zining dahlsizligi va vafotidan keyin ham farzandlari o'rtasidagi ko'ngilsizliklarning oldini olish niyatida barcha mulkini uchta qizlariga teng taqsimlab bermoqchi ekanligi to'g'risidagi rasmiy bayonotini e'lon qiladi. Shuningdek, ayni paytda Frantsiya qirol va Burgundiya grafi Qirol Lirning kenja qizi Kordeliyaga o'ylanishga da'vogarlik qilayotgan edilar. Saroydagi barcha yumushlar xattoki, qirolning sog'ligi to'g'risidagi tashvishlar ham qizlari zimmasiga yuklatilishi kutilayotgan edi. Ammo taomilga ko'ra avval Qirol Lirning qizlari otasini qanchalik yaxshi ko'rishlarini izohlab berishlari kerak edilar va eng chiroyli maqtov sohibasiga qirol mulkining yanada kattaroq qismi ajratilishi tayin etilgan edi. Shunga ko'ra Lirning to'ng'ich qizi Gonerilya otasini o'z hayotini sevgandek yaxshi ko'rishi to'g'risidagi gaplari bir-biriga qovushmaydigan bo'lsa-da tilyog'lama nutqini so'zlaydi. Qirolning ikkinchi qizi Regana esa otasiga boshqa qizlaridan ortiq mehr qo'yganligi va uni o'z hayotidan ham ko'proq yaxshi ko'rishi, shuningdek, uni otasining muhabbatigina baxtli qila olishi haqidagi nozik xushomadalarini keltiradi. Ikkiyuzlamachi opalarining bema'ni gaplarini eshitib qirolning uchinchi qizi Kordeliya otasiga bo'lgan muhabbatini quruq xushomadgo'ylikdan ko'ra ustun qo'yadi va tilyog'lamalilik qilishning navbati kelganida "Nothing" (xech narsa) deb javob qaytaradi. Shunda g'azabga kelgan qirol agarda, Kordeliya otasiga bo'lgan muhabbati haqida gapirmasa kenja qizining "nothing" (xech narsa) kabi javobidagi asl mazmuniga muvofiq uni merosdan mahrum etilishi va "xech narsasiz" qolishi mumkinligi to'g'risida ogohlantiradi:

CORDELIA

Nothing, my lord.

KING LEAR

Nothing!

CORDELIA

Nothing.

KING LEAR

Nothing will come of nothing: speak again.
("King Lear" by W.Shakespeare. Act I. Scene I.)

Корделия

Ничего, милорд.

Лир. Ничего?

Корделия

Ничего.

Лир

Из ничего не выйдет ничего. Так объяснись. (Б.Пастернак таржимаси)

Лир

... Қандай сўзинг бор?

Корделия

Ҳеч қандай, шохим.

Лир

Ҳеч қандай.

Корделия

Ҳеч қандай.

Лир

Ҳеч қандайдан, ҳеч қандайин нарса чиқмайди.

Яхши ўйлаб, сўнгра гапир. (G'. G'ulom tarjiması)

Asliyat matnida qirol Lir kenja qiziga "Nothing will come of nothing: speak again." deydi ya'ni, mazkur kontekst "Agarda aqlingni yig'ib meni quvontiradigan biron narsa demasang senga qirolligimdan umuman hech narsa bermayman, boshqatdan gapir" kabi mazmunga ega. Mazkur gapini Lir asar boshida keltiradi va uning bu izhori tragediyaning asosiy g'oyasini tashkil etgan. Drama yakunida esa Lir aynan Kordeliyaning mehriga muhtoj ekanligini tushunib yetadi. Qirolning katta qizlari Gonerilya va Regana otasiga bo'lgan o'zlarining sohta muxabbatlarini namoish etib Lirni chalg'ita oladilar va merosho'rga aylanadilar. Uchinchi qizi Kordeliya esa haqiqatni aytgani sabab saroydan xaydaladi. Bu yerda Kordeliya otasining gaplariga "nothing" deb javob qaytarganida katta opalarining otasiga namoyon etgan xushomadlari ham aslida ("nothing") ehtirossiz va sohta ekanligini ko'rsatishga urinadi va dilidagini tilida izhor eta olmasigini aytadi. Opalarining yolg'on gapirayotganini, va otasiga bo'lgan mehri nafaqat muhabbat balki farzandlik burchi va vazifalaridan ham iborat ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. Evaziga esa Lir qizining "nothing" so'zini "xech narsa" deb noto'g'ri tushunadi va yolg'on gapirishni hohlamaydigan qiziga davlatidan "xech qanday" meros ajratmaydi.

"Qirol Lir" asari mazkur sahnasi davomida Kordeliyaga kuyovlikka da'vogarlarining biri Burgudiy merosidan mahrum etilgan qizga o'ylanishdan bosh tortadi. Shunda Lir Frantsiya qirolining Kordeliyaga bo'lgan munosabati haqida so'raganda bo'lajak kuyov otasining bunchalik tez fursatda sevimli qizidan osongina yuz o'girganidan hayratda qolib bunga arzigulik bir sabab bo'lishi kerakligi haqida fikr

yuritadi. Frantsiya qiroli buni illat yoki xiyonat sifatida emas balki fazilat deb baholaydi. Lir esa endi Kordeliyadan butunlay yuz o'girib va uni qaytib ko'rishni ham xoxlamasligini aytadi. Frantsiya qiroli Kordeliyadek soddadil umr yuldoshini o'zi uchun kashf etilgan sof xazina deb biladi va Burgundiya gertsogi undan voz kechib qattiq adashganini aytadi. Malikaning to'g'ri so'zligi va faqirligi Frantsiya qirolining Kordeliyaga bo'lgan hurmatini yanada oshiradi va o'ylanishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, keyingi Kordeliyaga bag'ishlagan nutqida bir qator kalamburni kuzatishimiz mumkin:

KING OF FRANCE

Fairest Cordelia, that art most rich, being poor;
Most choice, forsaken; and most loved, despised!
Thee and thy virtues here I seize upon:
Be it lawful I take up what's cast away.
Gods, gods! 'tis strange that from their cold'st neglect
My love should kindle to inflamed respect.
Thy dowerless daughter, king, thrown to my chance,
Is queen of us, of ours, and our fair France:
Not all the dukes of waterish Burgundy
Can buy this unprized precious maid of me.
Bid them farewell, Cordelia, though unkind:
Thou lovest here, a better where to find.
(“King Lear” by W.Shakespeare. Act I. Scene I.)

Король Французский

Корделия, лишённая наследства,
Твое богатство — в бедности твоей.
Отверженная, я завладеваю
Тобой, мечта и драгоценный клад,
Как подбирают брошенные вещи.
О боги, боги, в этом униженье
Я лишь люблю ее неизреченней.
Приданого лишённая пристрастно,
Будь королевой Франции прекрасной.
Я этот перл бургундским господам
За многоводный край их не отдам.
Корделия, прости с двором суровым.
Ты лучший мир найдешь под новым кровом. (Б.Пастернак таржамси)
Француз қироли:

Камбағаллик билан бойсан, жононгинасан,
Ҳамма сени ташлаганда, яна қимматсан,
Назарлардан тушиш билан дидимга ёқдинг,
Мен оламан сени бутун борлиғинг билан,

Ҳамма четга улоқтирди, эгаллаш ҳақим.

Ё тавбайи! Шу умумий ҳазарнинг ўзи

Унга бўлган ишқим ўтин алангалатди.

(Қирол Лирга)

Сен қизингни шундай ожиз, гадо ҳолида

Улоқтирдинг менинг меҳру шафқатларимга.

Франция каби кўркам – гўзал ўлкада

Менинг севган қироличам бўлиб қолади.

Туман босган Бурганддаги бутун герцоглар

Энди менинг жононимни сотиб ололмас.

Сен буларнинг муз қалбига “ҳайру хўш” деб қўй.

Гарчанд бунда йўқотибсан, унда мукофот. (G'.G'ulom tarjimasi)

U.Shekspirning “Qirol Lir” nomli dramasidan keltirilgan Kordeliyaga bag'ishlangan Frantsiya qiroli nutqining o'zbek va rus tarjimalarida asliyat kalamburidagi obrazlar kontrastlari ham o'ziga xos tarjima usullari yordamida aks ettirilgan, shuningdek leksik birliklarining ma'noviy belgilari va uslubiy bo'yoqdorligi asrab qolinganligini kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Сковородников А.П. Игра как приём текстопорождения. Красноярск: Мир. 2010. 341 с.
2. Shekspir V.Tanlangan asarlar. Besh jildlik. Qirol Lir / Rus tilidan G'afur G'ulom tarjimasi. 2-jild. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1983.– 472. b.
- 3.<https://predanie.ru/book/218131-korol-lir-per-boris-leonidovich-pasternak>